

---

## TOSHLOQ TUMANIDA “MAHALLADA DUV-DUV GAP” TADBIRLARI DAVOM ETMOQDA

“Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida mamlakatimizda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar orqali yoshlarga yurtimizda olib borilayotgan izchil islohotlar, erishilayotgan yutuqlar haqida keng ma‘lumot berish, ularda Vatanga muhabbat, xalqimizga sadoqat hissini yanada kuchaytirish, tarbiyasiga salbiy ta‘sir etuvchi g‘oyaviy tahdidlarga qarshi immunitetni mustahkamlash, yoshlarni ilm-fanga, ma‘rifatga targ‘ib qilish barobarida ma‘rifatli jamiyat qurish, ular qalbida Yangi O‘zbekistonni barpo etishdagi daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy tadbirlar davom etmoqda.

Tuman hokimligi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Toshloq tuman bo‘linmasi, Yoshlar ishlari Agentligi tuman bo‘limi, tuman madaniyat bo‘limi, tuman Axborot kutubxona-markazi hamkor tashkilotlar bilan birgalikda "Sadda" mahalla fuqarolar yig‘inida aholi vakillari ishtirokida “Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostidagi “Mahallada duv-duv gap” ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy targ‘ibot tadbiri o‘tkazildi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, aholining hayot tarzini yanada yaxshilashga qaratilgan amaliy ishlar, jamiyatda xotin-qizlar o‘rni, xalqimizga, ayniqsa, yoshlarimizga yaratilib berilayotgan sharoitlar haqida gapirib o‘tdilar. Konsert dasturi tadbir ishtirokchilariga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi.

2024-01-09 15:19:37